



OQOVA SUV VA TOZALASH TIZIMINI IFODA ETUVCHI TERMINLAR TIZIM SIFATIDA

Xurramova Dilobar Muxtorovna

Xalqaro innovatsion universitet v.b. dotsent,

ORCID ID: 0009-0007-7420-3942

xurramovadilobar786@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17936349>

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oqova suv va tozalash tizimini ifoda etuvchi terminlarning til sistemasida tizim sifati tutgan o'rni xususida so'z yuritiladi. Oqova suv va uni tozalash tizimiga oid terminlarning lisoniy tizimdagi o'rni, ularning semantik, leksik va uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *tizim, leksema, termin, sistema, megasistemalar makrosistemalarga, mikrosistemalar, oqova suv, semema, sema, terminologiya, lisoniy ifoda.*

Аннотация. *В статье рассматривается роль системного качества в языковой системе терминов, обозначающих сточные воды и системы их очистки. Анализируется роль терминов, связанных со сточными водами и системами их очистки, в языковой системе, их семантические, лексические и стилистические особенности.*

Ключевые слова: *система, лексема, термин, система, megasistemalar k makrosistemalar, mikrosistemalar, stochnye vody, semema, sema, terminologiya, yazykoye vyrazheniye.*

Abstract. *This article discusses the role of system quality in the linguistic system of terms denoting wastewater and treatment systems. The role of terms related to wastewater and its treatment systems in the linguistic system, their semantic, lexical and stylistic features are analyzed.*

Keywords: *system, lexeme, term, system, megasystems to macrosystems, microsystems, wastewater, sememe, sema, terminology, linguistic expression.*

Kirish. Borliqning yaxlitligi xossasiga tayanilib butunning bo'laklar yig'indisiga teng emasligi qonuniyatini tilning yaxlitligi masalasiga ham tatbiq etish natijasida uning sistemaviy tabiatiligi oydinlashadi. Demak, til ham uning sathlari yig'indisi emas, balki o'z tashkil etuvchilari yig'indisidan kattaroq bo'lgan butunlik sifatida qaralishi lozim. "Til sistemaviy (butunlik) tabiatga ega ekanligi bois uning tarkibiy qismlari ham sistem xarakterdadir". [2.S.7]

Olam bir butunlik, sistema sanalar ekan, o'z navbatida til ham yaxlit bir sistemadir. Shunisi muhimki, har bir sistema bo'linuvchanlik xususiyatiga ega bo'lib, megasistemalar makrosistemalarga, makrosistemalar mikrosistemalarga, mikrosistemalar yana o'z ichida kichik sistemachalarga bo'linib ketadi. Boshqacharoq qilib aytadigan bo'lsak, til sistemalar sistemasi sanaladi.[3.s.342]

Obyektiv olamning sistemaviy xarakteri undagi narsa-hodisalarning tilda ham sistema tarzida aks etishini taqozo etadi. Til sistemasida, xususan, terminologiyada oqova suv va tozalashni ifoda etuvchi terminlar o'zaro aloqador munosabatlarga kirishgan holda o'ziga xos bir tizim sifatida yashab kelyapti. Tilning yaxlit qurilishida oqova suv va tozalash



tizimini ifoda etuvchi terminlar bir zanjirning bo'g'inlari sifatida o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'langanki, mazkur tizimdagi birorta so'zni ajralgan holda tasavvur etib bo'lmaydi.

Har bir til terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishi mazkur tilning so'z yasash qonuniyatlari asosida hamda uning leksikasi bilan mustahkam aloqada kechadi. Inson hayotida fan va texnika taraqqiyoti qanchalik katta ahamiyatga ega bo'lsa, uni egallash, boshqarish va taraqqiy ettirish uchun terminlar ham shunchalik muhim ahamiyatga molikdir. Shu jihatdan, terminlarni tartibga solish juda katta ilmiy va ijtimoiy ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Ma'lumki, jamiyat hayotida yuz bergan har qanday texnik-texnologik jarayon, yaratilgan kashfiyot, ilm-fan sohalaridagi yangiliklar ifoda etilgan muayyan terminlar asosida tilning terminologik qurilmasi boyib boradi. Boshqacha aytganda, borliq hodisalarining lisoniy ongda maxsus ifodaviy shaklga kirishi va turg'unlashuvi tilda terminlarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Tilning terminologik tizimi birliklari bir qator umumiy xususiyatlarga ega bo'lish bilan birga, sohaviy xoslanganligi bilan ham xarakterlanadi. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiy-siyosiy, tabiiy, aniq fanlar va texnik-texnologik sohalarda qo'llanuvchi ko'plab terminlar alohida belgilari bilan ajralib turadi. Buni oqova suv va uni tozalash tizimini ifoda etuvchi terminlar tizimida ham kuzatamiz.

O'zbek tili faoliyat doirasining keskin kengaygan, yangi uslub va sohalar ommalashib borayotgan sharoitda bu tizimda ro'y bergan o'zgarishlarni, yangi davr va sharoit talablari asosida oqova suv va uni ifoda etuvchi terminologiya tarkibining boyib borish manbalari, yo'l va usullarini tavsiflash, umumiy hodisa va qonuniyatlarni aniqlash, ularning amaliyotini sinchiklab kuzatish zarurligini kun tartibiga qo'ymoqda. Hozirgi kunda soha terminlari haqidagi qarashlar nazariy jihatdan rivojlantirishga muhtoj bo'lib, hamon yetarli bahosi berilgani yo'q.

Muhokama va natijalar. Binobarin, oqova suv va uni ifoda etuvchi terminlarning milliy tabiatini yoritish, jahon tilshunosligining so'nggi yutuqlari, boy tajribasi va nazariy qarashlariga tayangan holda tilimizning ichki qonuniyatlarini tavsiflash, yangicha tahlil metodlari bilan qurollangan zamonaviy ilmiy yo'nalishlar talabi asosida soha terminlarini leksik-semantik hamda pragmatik-stilistik jihatdan tadqiq etish bugungi kunning muhim masalalaridan biridir.

Fan taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanib boradigan terminlarning qo'llanishi umumiste'moldagi so'zlardan farqli ravishda ma'lum nazorat ostida bo'lib, tor lisoniy guruh tomonidan chegaralangan darajada "sun'iy" ravishda joriy qilinadi. Shuningdek, terminning ma'nosi kontekstga bog'liq bo'lmaydi. Muayyan leksema terminologik ma'noda va o'z terminologik maydonida qo'llanar ekan, ayni ma'no saqlanib qolaveradi, biroq ko'p ma'noli terminlarning aniq ma'nosini ajratib olishda kontekstning zarurligi shubha tug'dirmaydi. Shuni ham qayd etish lozimki, tilning terminologik tizimi birliklari



qayd etilgan umumiy xususiyatlarga ega bo'lish bilan birga (*panjara, nasos, qoldiq, chiqit, mag'zava, kirxona, hovuz, havza, cho'kma* kabi birliklar) sohaviy xoslanganligi bilan ham xarakterlanadi. Ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiy, siyosiy, tabiiy, aniq fanlar va texnik-texnologik sohalarda qo'llanuvchi ko'plab terminlar alohida belgilari bilan ajralib turadi. Mazkur holat oqova suv va tozalash tizimini ifoda etuvchi terminlarda ham kuzatiladi.

Oqova suv va uni tozalash tizimi terminlarining barchasi uchun "oqova" integral semasi birlashtiruvchi unsur vazifasini o'taydi. Masalan, quyidagi misollarda terminlarning barchasi uchun u denotativ sema arxisema maqomida:

Biohovuz belgilangan chuqurlik va o'lchamga ega bo'lgan, tubiga shlak, keramzit, mayda tosh, shag'al kabi donador filtrlovchi moddalar yotqizilgan, **oqova suvlarni** biologik tozalashda foydalaniladigan inshoot. Hovuzda tozalash jarayoni **oqova suv** tarkibidagi erigan moddalar bilan oziqlanuvchi bir va ko'p hujayrali tuban suvo'tlari, sporal o'simliklar, plankton kabi mikroorganizmlar hamda biohovuzda ekilgan yuksak suv o'simliklari yordamida amalga oshadi. [5.s.122-127]

Obodonlashtirish maydoni bir vaqtda **oqova suvlarni** biologik usulda tozalash va agrosanoat maqsadlari uchun foydalaniladigan, maxsus tayyorlangan yer maydoni. Tozalash quyosh, havo harakati, o'simliklarning hayot faoliyati ta'sirida [4.s.155] hamda bakteriya, sodda va umurtqasiz hayvonlar ishtirokida olib boriladi. Obodonlashtirish maydoni **oqova suvlaridan** boshqali o'simliklar, turli xil sabzavotlar, shuningdek, daraxtlarni sug'orishda foydalanish mumkin. Shunisi xarakterliki, oqova suv va uni tozalash terminlari bevosita shu soha tizimiga xos bo'lishi ham, boshqa tizimdan oqova suv leksemalari tizimiga o'zlashgan bo'lishi ham mumkin. Masalan, quyidagi terminlar faqat oqova suv va uni tozalash terminlari tizimida ishlatiladi: *oqizish inshootlari, tashlandiq moddalar, kanalizatsiya hovuzlari, tabiiy ifloslangan oqova suv, sun'iy ifloslangan oqova suv, oqova suvni mexanik tozalash, oqova suvni kimyoviy tozalash, oqova suvni biokimyoviy tozalash, oqova suvning ifloslanishi, oqova suvning hosil bo'lishi, biofiltr, biohovuz, oqova suvni tindirish, talab etilgan tozalash darajasi, filtrlash maydonlari, oqova suvni tindirish, tiniqqan suv, nordon oqova suv, oqova suvning sifat darajasi, oqova suv xossalari, chiqindilangan suv, oqova suv tarkibi, suvni maxsus tozalash inshootlari, oqova suvning miqdori, oqova suv sarfi* kabilar.

Oqova suv va uni tozalash tizimi terminosistemasida shunday terminlar ham borki, ular boshqa sohalarda ham keng qo'llanadi, lekin oqova suv va uni tozalash tizimi sohasida "Oqova suvning hosil bo'lishi va tozalashga xos" umumiy birlashtiruvchi semasi bilan ajralib turadi. Bunday terminlar sirasiga oqova suv hamda uni tozalash jarayonida uchraydigan quyidagi terminlarni kiritish mumkin: *absorbsiyalash, adsorbsiyalash, tozalash, mineral modda, kimyoviy reagentlar, ohak, ohaktosh, og'ir metallar, suyuq go'ng, cho'kma, organik moddalar, osma moddalar, kurak, lotok, ariq, mineral kislota, nasos, suvo't, qamish, quvur, ko'pik, truba, rezervuar.*



Oqova suv va uni tozalash tizimi sohasida “Oqova suvga xos” terminologik semasiga ega bo‘lgan hamda maxsus terminologik lug‘atlarda ushbu semasiga urg‘u berilgan holda tavsiflanadigan, izohlanadigan o‘zbek tilining umumiste‘mol leksikasiga tegishli bo‘lgan so‘zlar ham talay. Bunday terminlar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: *oqova, mag‘zava, kirxona, siziq, sizova, loyqa, cho‘kindi, yig‘gich, purkagich, maydalagich, chiqindi, tindirish, iviq, sizot, bo‘tana, zararsizlantirish, maydon, iflos, kir, panjara, tashlama, hovuz, xaskash, yuvundi* kabilar. Oqova suv va uni tozalash tizimi sohasida qo‘llanadigan ayrim terminlarni ko‘p hollarda boshqa sohaviy leksika, shuningdek, umumiste‘mol birliklardan qat‘iy chegaralash qiyin. Bu holat mazkur tizimda qo‘llanadigan umumiste‘mol va boshqa sohaviy terminlarni oqova suv va uni tozalash tizimi terminlari sifatida talqin qilish va leksikografik tavsifini berishda chuqur lingvistik bilimga egalik bilan bir qatorda oqova suv va uni tozalash tizimi sohasi mutaxassisi bo‘lish lozimligini ham taqozo qiladi. Masalan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da oqova leksemasi umumiste‘mol leksik birlik sifatida quyidagicha izohlangan:

Oqova 1 Hovuz, ekinzor kabi joylarga bir tomondan kirib, ikkinchi tomondan chiqib ketadigan suv. *Oqova qilib sug‘orish ekinni egatlardan suv oqizib qo‘yib, miriqtirib sug‘orish.*

2 Partov suv, chiqit, iflos suv. *U qo‘lini yuvayotib, quvurga jildirab oqayotgan oqovaga tikilgan kuyi, beixtiyor xayolga tildi.* N.Qilichyev, Chig‘iriy.

3 ko‘chma s. t. *Bo‘lib o‘tgan ishning qoldiq asari, oqibati. Bulturgi ishning oqovasi. Bu yo‘l-yo‘lakay uzoq davom etgan darg‘azab suhbatning sovibroq qolgan oqovasi edi, shekilli.* A.Muxtor, Kumush tola. Garchand aynan shunaqa deb aytishmagan bo‘lsa ham, gapning oqovasi shunga olib kelar edi. “Yoshlik”. [6.s.508]

Ko‘rinib turibdiki, bosh ma‘no sifatida *oqovaga*, asosan, *ekinlarni oqizib sug‘orish* jarayonini ifodalash semasi olingan. So‘zning bizga tegishli semasi hosila (2) ma‘no sifatida qaralgan. Keltirilgan illyustrativ dalil ham nazarimizda, bu hosila semani ochib bermagan. Ushbu izohda oqova suv va uni tozalash bilan bog‘liq terminlar tizimida tegishli, berilishi mumkin bo‘lgan ma‘no – semalardan hech biri qayd etilmaganligi ma‘lum bo‘ladi. Buni shunday asoslash mumkinki, izohli lug‘atlarimiz umumga xos bo‘lganligi sababli keltirilgan lug‘at maqolalaridan terminologik ma‘nolarni qidirish ma‘qul emas, albatta. *Oqova* leksemasi oqova suv va uni tozalash tizimi terminlari orasida o‘zining keng qamrovli va ko‘p qo‘llanuvchanligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, bu birlik barcha oqova suv va uni tozalash terminlari tizimini birlashtiruvchi giperonim leksema sifatida o‘rin egallaydi. “Oqova” termini tilimizda *iflos, partov, xalqob, kir, oqindi* deb ham yuritiladi. Ularning har biri ushbu tizimda “*oqova*”ga xos umumiy semasiga ega. Mazkur tizimda ularning ma‘nolarini umumlashtiruvchi, birlashtiruvchi dominant leksema sifatida namoyon bo‘ladi va uning semantik strukturasi ham ushbu holat ro‘y-rost ko‘rinadi:



Oqova suv bu sanoat, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish, kundalik turmushda insonlar tomonidan ishlatilib, foydalanish natijasida qaytib chiqadigan suvlar. Atmosfera (yog'in) suvlari hamda ma'lum bir ifloslangan hududdan o'tib hosil bo'lgan suvlar. Ular suv havzalariga tashlanishdan oldin maxsus suv tozalash inshootlarida belgilangan me'yorda tozalashdan o'tkaziladi.

Termin-leksemaning bu ma'nosi – oqova polisemantik leksemasining ikkinchi ma'nosidan o'sib chiqqan hosila sema, ya'ni terminologik semema hisoblanadi. Terminologik ma'no denotatning oqova suv va uni tozalash sohasida bajaradigan vazifasiga urg'u berish asosida shakllantirilgan va umumiste'mol oqova leksemasidagi ikkinchi semema ushbu semantik strukturada oddiy bir sema darajasiga tushgan, semema sema darajasida toraygan. Lisoniy ongimizda oqova tushunchasi kundalik hayotimizda, sanoat, ishlab chiqarishda, tabiatdagi tirik mavjudotlar tomonidan foydalanilgan chiqit suv, har xil tarkibli ifloslangan suv hamda uni tozalash jarayoni va qayta foydalanish majmuidan iborat tizim sifatida gavdalanadi. Ammo oqovaning hosil bo'lish jarayoni, uning tarkibi, tozalash usullari, tozalash jarayonida foydalaniladigan usullar, har xil aralashmalar, jihoz va uskunalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ongimizda oqovaning lisoniy ifodasi ishlatilgan, iflos, ichishga va foydalanishga yaroqsiz suv sifatida, shuningdek, uni tozalab, ma'lum maqsadlarda qayta foydalanish kabilarda namoyon bo'ladi. Oqova hosil bo'lish, tozalash va qayta foydalanish tushunchalari bilan, hosil bo'lish, tozalash hamda qayta foydalanish esa oqova tushunchasi bilan dialektik yaxlitlikda ifodalanadi.

Xulosa. Oqova suv, uni ifoda etuvchi leksemalarni tizim asosida tahlil va tadqiq etish, soha terminologiyasida ba'zi murakkablik va tushunmovchiliklarni bartaraf etish o'zbek terminologiyasining yana bir soha terminlarini tartiblash muammosini hal etish imkonini beradi. Oqova suv va uni tozalash tizimi bilan bog'liq terminlarni lingvistik tabiatini ochib berish, oqova suv sememasi asosida birlashuvchi terminlarning mohiyatini chuqurroq o'rganishga imkon yaratadi. Zero, har bir tildagi terminlarni funksional aspektda o'rganishda ularni mavzuviy guruhlarga ajratib tahlil qilish terminlarning semantik tabiati, funksional xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi hamda ularning milliy terminologik tizimdagi o'rni aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ergashova R. Aviatsiya terminlarining semantik-stilistik xususiyatlari // Til va madaniyat. 2023 Vol. 3 (1) B.101.
2. Мэнглиев Б. Лисоний система яхлитлиги ва унда сатхлараро муносабатлар: Филол. фан. док. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2002. – 7 б.
3. Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. –М.: Наука, 1971.
4. Turobjonova S. Oqova suvlarni tozalash texnologiyasi. – Toshkent: Musiqa, 2010. – B. 155.
5. Xurramova D. Oqova suv va uni tozalash jarayoni bilan bog'liq terminlarning tuzilish xususiyatlariga doir. – Toshkent: O'zA Ilm-fan bo'limi (elektron jurnal) – № 11 (49). – 2023. – B. 122–127.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 508.